O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 6-avgust | 424-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19 iyuldagi PQ-274-son qarori to‘g‘risida

Voleybol sport turlarini yanada ommalashtirish, yoshlar orasidan voleybol sport turlari bilan shug‘ullanuvchi sportchilarni saralab olish tizimini yaxshilash, ushbu sport turi bo‘yicha zamonaviy sport infratuzilmasini yaratish hamda milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta’minlash maqsadida:

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi PQ-274-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

a) quyidagilar voleybol, sohil voleyboli va para voleybol sport turlarini (keyingi o‘rinlarda — voleybol sport turlari) **rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari** etib belgilanganligi:

voleybol sport turlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish hamda **eng ommaviy sport turlaridan biriga aylantirilishi;**

iqtidorli sportchilar, shu jumladan, sportchi-ayollarni aniqlash, **seleksiya qilish** hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning barcha bosqichlarini **raqamlashtirilishi;**

zarur sharoitlarga ega **professional va oliy ta’lim tashkilotlarida** voleybol sport turlari bo‘yicha **to‘garaklarni** tashkil etilishi;

voleybol sport turlari bo‘yicha professional trenerlar va hakamlarni **tayyorlash tizimini rivojlantirilishi;**

voleybol sport turlari bo‘yicha zamonaviy sport majmualarini barpo etish, mavjud **moddiy-texnika bazasini mustahkamlash,** ularni zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta’minlanishi;

b) **2024-2026-yillarda**voleybol sport turlarini **rivojlantirish dasturi** (keyingi oʻrinlarda — Dastur) 1-ilovaga muvofiq;

2024-2026 yillarda voleybol sport turlarini rivojlantirishning **maqsadli koʻrsatkichlari** 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

d) Sport vazirligi, Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi, Oʻzbekiston Milliy paralimpiya qoʻmitasi, Oʻzbekiston voleybol federatsiyasining **2025-yildan boshlab har yili** anʼanaviy tarzda:

oliy taʼlim muassasalari talabalari, **professional taʼlim** va **umumiy oʻrta taʼlim muassasalari oʻquvchilari** oʻrtasida **"Volleyball stars"** Oʻzbekiston kubogi oʻtkazilishi;

vazirlik va idoralar xodimlari oʻrtasida uch bosqichli (tuman (shahar) — viloyat — respublika) voleybol sport turlari boʻyicha **"Yangi Oʻzbekiston"** respublika musobaqasi oʻtkazilishi;

umumiy oʻrta taʼlim muassasalari yuqori sinf oʻquvchilari oʻrtasida uch bosqichli **Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi kubogi oʻtkazilishi;**

nogironligi boʻlgan shaxslar oʻrtasida **para voleybol sport musobaqalarini** oʻtkazib borilishi;

Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi (P.Bobojonov) Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi (X.Umarova), Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K.Sharipov) hamda Sport vazirligi (A.Ikramov) bilan birgalikda **ikki oy** muddatda mazkur bandda koʻrsatilgan sport musobaqalarini oʻtkazish tartibini tasdiqlashi;

e) Sport vazirligi (A.Ikramov) Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K.Sharipov), Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi (X.Umarova), Ichki ishlar vazirligi (P.Bobojonov), Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi (O.Qosimov), Oʻzbekiston Milliy paralimpiya qoʻmitasi (M.Tashxodjayev) va Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi bilan birgalikda:

uch oy muddatda mazkur qarorning 3-bandida koʻrsatilgan musobaqalarga puxta tayyorgarlik koʻrish, ularni yuqori saviyada tashkil etish va oʻtkazish hamda musobaqa gʻolib va sovrindorlarini **munosib ragʻbatlantirish** boʻyicha **chora-tadbirlar**rejasini tasdiqlashi;

ushbu qarorning 3-bandida koʻrsatilgan sport musobaqalarini **2025-yil 1-yanvardan** boshlab byudjetdan ajratilgan mablagʻlar doirasida Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining **respublika kalendar rejasiga** kiritish choralarini koʻrishi;

f) umumiy oʻrta taʼlim muassasalari oʻquvchilari oʻrtasida voleybol sport turi boʻyicha **Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi kubogi** musobaqalarining final bosqichida gʻolib boʻlgan taʼlim muassasalariga ularning haqiqiy ehtiyojidan kelib chiqib, zarur **sport jihoz va anjomlari** yetkazib berilishi;

gʻolib boʻlgan umumiy oʻrta taʼlim muassasalarini ularning haqiqiy ehtiyojidan kelib chiqib, zarur **sport jihoz va anjomlari** bilan taʼminlash Oʻzbekiston voleybol federatsiyasining mablagʻlari hisobidan amalga oshirilishi;

vazirlik va idoralar xodimlari oʻrtasida har yili oʻtkaziladigan **"Yangi Oʻzbekiston"** respublika musobaqasining tuman (shahar) va hududiy bosqichlarini tashkil etish hamda oʻtkazish ushbu vazirlik va idoralar tomonidan **Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi** bilan kelishgan holda amalga oshirilishi;

g) Oʻzbekiston voleybol federatsiyasining 2025-yildan boshlab **har ikki yilda bir marta** federatsiyaga yoʻnaltiriladigan homiylik xayriyalari hisobidan voleybol boʻyicha Markaziy Osiyo voleybol assotsiatsiyasi (SAVA)ga aʼzo davlatlar oʻrtasida **"Buyuk Ipak yoʻli"** xalqaro turniri oʻtkazilishi;

h) Sport vazirligi, Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi, Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi va Namangan viloyati hokimligining Namangan viloyati Uchqoʻrgʻon tumani olimpiya va milliy sport turlari boʻyicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatini amaldagi moliyalashtirish tartibini saqlab qolgan holda **Voleybol sport turlariga ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internati** (keyingi oʻrinlarda — maktab-internat) sifatida qayta tashkil etilishi;

i) quyidagilar maktab — internatning **qoʻshimcha vazifalari** etib belgilanganligi:

voleybol sport turlari boʻyicha **ilgʻor xorijiy davlatlar tajribalarini** oʻrganish va mamlakatimizda joriy etish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqishi;

voleybol sport turlari boʻyicha oʻquv dasturlarini yangilash, yoshlarning tayyorgarlik jarayoniga **ilgʻor innovatsion texnologiyalarni** joriy etishi;

voleybol sport turlari boʻyicha milliy terma jamoalar uchun **professional sportchilar zaxirasini yaratish** hamda bu borada **Rossiya, Belarus, Italiya, Polsha, Yaponiya** va **Turkiya** davlatlarining voleybol klublari bilan hamkorlikni rivojlantirishi;

j) maktab-internat faoliyati voleybol sport turlari boʻyicha iqtidorli yosh sportchilarni saralab olish va ularni **terma jamoalarga asosiy nomzod sifatida tayyorlashi**;

maktab-internat **2024/2025 oʻquv yilidan** faoliyatini boshlashi hamda oʻz faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyundagi "Sport turlari boʻyicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari faoliyatini takomillashtirish toʻgʻrisida"gi 410-son qarorida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirishi;

maktab-internatning **voleybol sport turlari boʻyicha** oʻquvchi- sportchilari soni maktab-internatning umumiy kontingenti doirasida Sport vazirligi tomonidan belgilanganligi hamda mavjud sport inshootlari imkoniyatlaridan kelib chiqib

qoʻshimcha ravishda **chim ustida xokkey, gandbol, erkin kurash** kabi sport turlari ham rivojlantirilishi;

2024/2025 oʻquv yiliga qadar maktab-internatda mazkur bandda koʻzda tutilmagan boshqa sport turlari boʻyicha tahsil olayotgan oʻquvchilar ushbu maktab-internatni **toʻliq tamomlagunga qadar oʻqishini davom ettirishi;**

k) 2025/2026 oʻquv yilidan boshlab voleybol sport turi boʻyicha yuqori natijalarga erishgan **16 nafardan** (8 nafar oʻgʻil, 8 nafar qiz) iqtidorli sportchi-oʻquvchi Sport vazirligining tavsiyasiga asosan Ichki ishlar vazirligi akademik litseylariga tanlovning dastlabki va maxsus- professional bosqichidan muvaffaqiyatli oʻtgandan soʻng test sinovlarisiz umumiy kvota doirasida ichki ishlar vaziri tomonidan belgilangan tartibda oʻqishga qabul qilinishi;

l) **2025-2026-yillarda** Ichki ishlar vazirligi (P.Bobojonov) vazirlik tasarrufida boʻlgan Toshkent viloyati, Boʻstonlik tumanidagi "Oqtosh" bolalar sogʻlomlashtirish oromgohi bazasida voleybol sport turlari boʻyicha respublika va xalqaro oʻquv-yigʻin mashgʻulotlarini oʻtkazishga moʻljallangan **yopiq turdagi sport inshootlari** barpo etilishi;

mazkur yopiq turdagi sport inshootlarini qurish bilan bogʻliq xarajatlar Ichki ishlar vazirligining byudjetdan tashqari mablagʻlari hisobidan amalga oshirilishi;

m) Sport vazirligi (A.Ikramov) **bir oy muddatda** maktab-internatining ustavini tasdiqlashi va belgilangan tartibda davlat roʻyxatidan oʻtkazishi;

Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi, Oʻzbekiston Milliy paralimpiya qoʻmitasi va Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi bilan birgalikda:

maktab-internatda sportchilarni tayyorlash sifati yuzasidan doimiy davlat nazoratini amalga oshirishi;

maktab-internat oʻquv-mashgʻulot jarayonida voleybol rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yuqori malakali kadrlari hamda ilmiy- metodik salohiyatidan unumli foydalanishni yoʻlga qoʻyishi;

n) Davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya va Bojxona qoʻmitasi Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi bilan birgalikda **2024-yil 1-sentyabrdan boshlab:**

voleybol sport turlari boʻyicha oʻz tizimida byudjetdan tashqari mablagʻlari hisobidan sport klublari faoliyatini yoʻlga qoʻyishi;

oʻz xodimlari oʻrtasida **"Mustahkam oila — armiya tayanchi"** shiori ostida har yili voleybol musobaqalarini oʻtkazib borish amaliyotini yoʻlga qoʻyishi;

o) Oʻzbekiston voleybol federatsiyasiga sport zallari begʻaraz biriktiriladigan davlat taʼlim muassasalarining manzilli roʻyxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

bunda, davlat taʼlim muassasalarining sport zallari darsdan boʻsh vaqtlarda, shuningdek, yozgi taʼtil davrida voleybol sport turlari boʻyicha hududiy terma jamoalar shugʻullanishi uchun ajratishi;

p) Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi hamda Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasining Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi tizimida yuridik shaxs shaklidagi **hududiy professional voleybol klublarini** tashkil etishi;

hududiy professional voleybol klublari uchun bino va inshootlarni barpo etish Sport vazirligi bilan kelishilgan namunaviy loyiha asosida **mahalliy byudjetning qoʻshimcha manbalari** va **homiylik xayriyalari** hisobidan amalga oshirilishi hamda ularga hududiy professional voleybol klublari **tekin foydalanish huquqi asosida** joylashtirilishi;

hududiy professional voleybol klublari iqtidorli yosh sportchilarni saralab (seleksiya) olishni hamda kelgusida ularni milliy terma jamoalarning asosiy va zaxira tarkibiga tayyorlab berishni amalga oshirishi, shuningdek, hududiy saralash musobaqalarini oʻtkazib borishi;

hududiy professional voleybol klublari **mahalliy byudjet** va **homiylik xayriyalari** hisobidan Xalqaro voleybol federatsiyasining talablari asosida ishlab chiqarilgan **sport jihozlari va inventarlari** bilan taʼminlanishi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining oʻrinbosarlari X.Sirojitdinov, Sh.Raximov, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Roʻzaliyev), Sport boshqarmasi (N.Hakimov)ga:

bir oy muddatda professional voleybol klublari uchun bino va inshootlarni barpo etish hamda sport jihozlari va inventarlari bilan taʼminlash ishlarini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan mablagʻlarni ajratish boʻyicha Xalq deputatlari viloyat Kengashiga taklif kiritish;

har yili professional voleybol klublari faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, sportchilarning hududiy, respublika va xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishi uchun hududiy sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasiga **zarur mablagʻlarni** yoʻnaltirib borish;

professional voleybol klublarini sport anjomlari va jihozlari bilan taʼminlash choralarini koʻrish vazifalari yuklansin.

4. Viloyat teleradiokompaniyasi (I.Halimbekov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (M.Mirzayev), Sport boshqarmasi (N.Hakimov) bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini yoritishga oid maqola, brifing, tematik telekoʻrsatuvlar tashkil etsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga masʼul va shaxsiy javobgar etib Sport boshqarmasi boshligʻi N.Hakimov hamda Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi Fargʻona viloyati boʻlimi raisi A.Ikramov belgilansin.

6. Qaror ijrosini muhokama qilib borish hamda masʼul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish viloyat hokimining oʻrinbosari Sh.Raximov zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni oʻz zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 6-avgustdagi
424-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2024-2026-yillarda voleybol sport turlarini rivojlantirish DASTURI

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Amalga oshirish muddatlari	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
1.	Voleybol sport turlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish hamda eng ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish.	1. Yoshlarni sport klublari, sport maktablarining voleybol seksiyalari va to‘garaklariga keng jalb etib borish. 2. Sport klublari, sport maktablarining voleybol seksiyalari va to‘garaklariga jalb qilingan yoshlarni mahalliy va respublika musobaqalariga puxta tayyorlab borishni yo‘lga qo‘yish.	Doimiy ravishda	-	Sport boshqarmasi *(N.Hakimov),* O‘zbekiston voleybol federatsiyasi Farg‘ona viloyat bo‘limi *(A.Ikramov),* tuman, shahar hokimliklari
2.	Hududlarda voleybol sport turlari bo‘yicha iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) ishlarini takomillashtirish.	1. Iqtidorli yoshlarni hududlardagi seleksionerlarni jalb qilgan holda aniqlash. 2. Saralab olish (seleksiya) yo‘li bilan aniqlangan iqtidorli yoshlarni kelajakda oliy mahoratli voleybolchi bo‘lib shakllanishi uchun sport maktablariga yo‘naltirish. 3. Ta’lim muassasalarida ushbu yoshlarning o‘qish va shug‘ullanish jarayonini doimiy nazoratga olgan holda monitoring qilib borish. 4. Nufuzli xalqaro musobaqalarda g‘olib va sovrindor bo‘lgan mashhur sportchilar hamda boshqa xalqaro darajadagi	2024-2026-yillar davomida	-	Sport boshqarmasi *(N.Hakimov),* O‘zbekiston voleybol federatsiyasi Farg‘ona viloyat bo‘limi *(A.Ikramov),* tuman, shahar hokimliklari

		mutaxassislar tomonidan yosh voleybolchilar bilan mahalla, tuman va shaharlarda doimiy ravishda mahorat darslarini tashkil qilish.			
3.	Voleybol sport turlari boʻyicha tegishli xalqaro tashkilotlar tasdiqlagan norma va qoidalarda belgilangan yosh toifalari boʻyicha sport musobaqalarini oʻtkazib borish.	1. Oliy taʼlim muassasalari talabalari, professional taʼlim muassasalari va umumiy oʻrta taʼlim muassasalari oʻquvchilari oʻrtasida "Voleyball stars" Oʻzbekiston kubogi musobaqasini oʻtkazish. 2. Boshqarma va tashkilot xodimlari oʻrtasida ikki bosqichli (tuman va shahar - viloyat) voleybol sport turlari boʻyicha "Yangi Oʻzbekiston" musobaqasini oʻtkazish. 3. Umumiy oʻrta taʼlim muassasalari oʻquvchilari oʻrtasida musobaqalar oʻtkazish.	2025-yildan boshlab har yili	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining respublika kalendar rejasiga ajratilgan mablagʻlar	Sport boshqarmasi *(N.Hakimov),* Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi *(Sh.Dolimov),* Oliy taʼlim,fan va innovatsiyalar boshqarmasi *(T.Boymatov),* Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi Fargʻona viloyat boʻlimi *(A.Ikramov)*
4.	Markaziy Osiyo voleybol assotsiatsiyasi (SAVA)ga aʼzo davlatlar oʻrtasida "Buyuk Ipak yoʻli" xalqaro turnirini oʻtkazib borish.	1. "Buyuk Ipak yoʻli" xalqaro turnirini oʻtkazish hamda gʻolib va sovrindorlarni taqdirlash tartibini ishlab chiqish. 2. Markaziy Osiyo voleybol assotsiatsiyasi (SAVA)ga aʼzo davlatlarning voleybol federatsiyalari (assotsiatsiyalar) bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻyish. 3. "Buyuk Ipak yoʻli" xalqaro turnirini Markaziy Osiyo voleybol assotsiatsiyasi (SAVA)ga aʼzo davlatlar ishtirokida keng qamrovda tashkil etish.	2024-yil 4-chorak 2025-yildan boshlab har ikki yilda bir marta	Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi mablagʻlari	Sport boshqarmasi *(N.Hakimov),* Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi Fargʻona viloyat boʻlimi *(A.Ikramov)*
5.	Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi huzurida hududiy professional	1.Hududiy professional voleybol klublari uchun bino-inshootlar qurishga yer uchastkalarini ajratish choralarini koʻrish.	2024-2025-yillar davomida doimiy	Mahalliy byudjetning qoʻshimcha	Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Z.Roʻzaliyev), Sport

	voleybol klublarini tashkil etish.	2. Reja-grafik asosida hududlarda professional voleybol klublari uchun bino-inshootlar barpo etilishini ta'minlash. 3. Voleybol bo'yicha nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etadigan sportchilar bilan individual ishlash va ularning puxta tayyorgarligini tashkil etib borish. 4. Hududiy professional voleybol klublarini Xalqaro voleybol federatsiyasining talablari asosida ishlab chiqarilgan voleybol sport jihozlari va inventarlari bilan ta'minlab borish.		manbalari va homiylik xayriyalari	boshqarmasi *(N.Hakimov),* O'zbekiston voleybol federatsiyasi Farg'ona viloyat bo'limi *(A.Ikramov),* tuman, shahar hokimliklari,
6.	O'zbekiston voleybol federatsiyasi yo'llanmasi asosida hududlarga trenerlarni va boshqa mutaxassislarni ilg'or tajribani joriy etish maqsadida yuborish tizimini yo'lga qo'yish.	1. Voleybol sport turlari rivojlanmayotgan va natijadorligi past bo'lgan hududlarga trenerlar va tegishli mutaxassislarni yuborish (rotatsiya qilish) hamda ularni biriktirish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Trenerlar va tegishli mutaxassislarni tajriba tariqasida Jizzax va Surxondaryo viloyatlariga yuborish.	2025-yildan boshlab		Sport boshqarmasi *(N.Hakimov),* O'zbekiston voleybol federatsiyasi Farg'ona viloyat bo'limi *(A.Ikramov)*
7.	Voleybolchilarning sport tibbiyoti bo'yicha bilim darajasini oshirib borish.	1. Toshkent tibbiyot akademiyasi, Andijon davlat tibbiyot instituti, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Buxoro davlat tibbiyot instituti sport tibbiyoti kafedralari bilan hamkorlikda seminar-treninglar tashkil etib borish. 2. Seminar-treninglarni sport kardiologiyasi, travmatologiyasi va ortopediyasi, farmakologiyasi, sportchilarning somatik kasalliklarini davolash, immunitetni korreksiyalash	2025-yildan boshlab	Ijrochilar va homiylar mablag'lari	Sog'liqni saqlash boshqarmasi *(B.Primqulov),* Sport boshqarmasi *(N.Hakimov),* O'zbekiston voleybol federatsiyasi Farg'ona viloyat bo'limi *(A.Ikramov)*

		(tuzatish), funksional tashxis (diagnostika), sport jarohatidan keyingi reabilitatsiyasi hamda sportchilarning mashg‘ulotlar va musobaqa yuklamalaridan keyingi reabilitatsiyasi kabi o‘nalishlarda amalga oshirib borish.			
8.	Voleybol sport turlari bilan shug‘ullanuvchi yoshlar qamrovini kengaytirish.	1. Voleybol sport turlarini ta’lim muassasalari, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish orqali ommalashtirish, aholining ushbu sportturiga qiziqishini oshirish. 2. Voleybol bo‘yicha sport klublari faoliyatini yanada kengaytirish, ularni qo‘llab-quvvatlash. 3. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning voleybol bilan bepul shug‘ullanishlari uchun qulayliklar yaratish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash.	2024-2025-yillarda	Ijrochilar va homiylar mablag‘lari Mahalliy byudjet mablag‘lari	Sport boshqarmasi *(N.Hakimov),* O‘zbekiston voleybol federatsiyasi Farg‘ona viloyat bo‘limi *(A.Ikramov),* Tuman, shahar hokimliklari
9.	Voleybol sport turlari bo‘yicha trener va mutaxassislar malakasini oshirish.	1. Trener va hakamlar uchun o‘quv-seminar tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha reja grafik va o‘quv dasturini ishlab chiqish hamda tasdiqlash. 2. Reja grafik asosida bosqichma-bosqich salohiyatli mutaxassislarni jalb qilgan holda o‘quv seminarlarni tashkil etib borish.	2024-yildan boshlab har yili		Sport boshqarmasi *(N.Hakimov),* O‘zbekiston voleybol federatsiyasi Farg‘ona viloyat bo‘limi *(A.Ikramov)*
11.	O‘quv-mashg‘ulot jarayoniga jahonning yetakchi mutaxassislarini tizimli asosda jalb etish hamda tajriba almashish	1. Voleybol bo‘yicha yetakchi xorijiy davlatlar (Italiya, Polsha, Yaponiya, Turkiya va boshqalar)ning ilg‘or tajribasini o‘rganish. 2. Mahalliy mutaxassislarni xorijiy davlatlarga tajriba almashishga yuborish	2024-yil dekabr	Ijrochilar va homiylar mablag‘lari	Sport boshqarmasi *(N.Hakimov),* O‘zbekiston voleybol federatsiyasi Farg‘ona viloyat bo‘limi *(A.Ikramov)*

	maqsadida kadrlarni voleybol rivojlangan yetakchi xorijiy davlatlarga yuborish tizimini joriy etish.	hamda yetakchi xorijiy mutaxassislarni yurtimizga mahorat darslarini oʻtkazish maqsadida tashrifi rejasini ishlab chiqish hamda tasdiqlash.			
12.	Xalqaro voleybol federatsiyasi (FIVB), Osiyo voleybol konfederatsiyasi (AVS) va Markaziy Osiyo voleybol assotsiatsiyasi (SAV/A) bilan hamkorlikni mustahkamlash.	3. Voleybol sport turlari boʻyicha jahon reytinglarida yuqori oʻrinlarni egallagan davlatlar, shu jumladan Italiya, Polsha, Yaponiya va Turkiya davlatlarining ilgʻor tajribasini oʻrganish va amaliyotga joriy qilish. 4. Mazkur davlatlardagi sport federatsiya (assotsiatsiya)lari bilan hamkorlikni kuchaytirish.	2024-2025-yillar	Ijrochilar va homiylar mablagʻlari	Sport boshqarmasi (N.Hakimov), Oʻzbekiston voleybol federatsiyasi Fargʻona viloyat boʻlimi *(A.Ikramov),*
13.	Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Internet orqali voleybol sport turlarini keng targʻib qilish.	Quyidagilarni nazarda tutuvchi 2024-2025-yillarga moʻljallangan media- rejani ishlab chiqish va tasdiqlash: voleybol boʻyicha mahalliy va xalqaro musobaqalar, sportchilarimiz tomonidan erishilgan yutuqlarni muntazam yoritib borish maqsadida voleybol boʻyicha maxsus rukn tashkil qilish; ommaviy axborot vositalarida voleybol sport turlarini keng yoritish ishlarini doimiy ravishda tashkillashtirib borish; mashhur sportchilar bilan davra suhbatlari, muloqotlar va mahorat darslarini oʻtkazish; taniqli sportchilar ishtirokida ijtimoiy reklama roliklarini ishlab chiqish va	2024-yil sentyabr	-	Viloyat teleradiokompaniyasi *(I.Halimbekov),* Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi *(M.Mirzayev)*

		namoyish etish;sport jurnalistlarining voleybol yutuqlari tahliliga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlarini ommaviy axborot vositalarida doimiy yoritib borish.			

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 6-avgustdagi
424-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2024-2026-yillarda voleybol sport turlarini rivojlantirishning
MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar kesimida			Mas’ul ijrochilar
			2024	2025	2026	
1.	Farg‘ona viloyatida voleybol sport turi bilan doimiy shug‘ullanuvchilar	nafar	3000	3500	4000	Sport boshqarmasi, O‘zbekiston voleybol federatsiyasi Farg‘ona viloyati bo‘limi
2.	Sport-ta’lim muassasalarida voleybol sport turi bilan doimiy shug‘ullanuvchilar	nafar	2050	2500	3000	Sport boshqarmasi, O‘zbekiston voleybol federatsiyasi Farg‘ona viloyati bo‘limi
3.	Sport-ta’lim muassasalaridagi voleybol bo‘yicha trenerlar	nafar	74	80	85	Sport boshqarmasi, O‘zbekiston voleybol federatsiyasi Farg‘ona viloyati bo‘limi
4.	Sport-ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladigan voleybol musobaqalari	son	10	14	18	Sport boshqarmasi, O‘zbekiston voleybol federatsiyasi Farg‘ona viloyati bo‘limi
5.	Voleybol sport turi bo‘yicha	son	6	8	10	Sport boshqarmasi,

	terma jamoalarning xalqaro sport musobaqalarida ishtiroki					O‘zbekiston voleybol federatsiyasi Farg‘ona viloyati bo‘limi

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 6-avgustdagi
424-11-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

O‘zbekiston voleybol federatsiyasiga sportzallari beg‘araz biriktiriladigan davlat ta’lim muassasalarining MANZILLI RO‘YXATI

№	Davlat ta’lim muassasasi nomi	Yuqori turuvchi vazirlik va idora
1.	Rishton Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi	Sog‘liqni saqlash vazirligi
2.	Uchko‘prik tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
3.	O‘zbekiston tuman 2-son kasb-hunar maktabi	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi